ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
# TIL
# ADABIYOT
# TA'LIM



## Philological research:
## LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования:
## ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 10**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK

**JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,**
**TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA**
Intensivlik va darajalanish munosabati .....7

**ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ**
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм .....12

**UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH**
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi .....16

**MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI**
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari .....21

**QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA**
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

**JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA**
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari .....29

**RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA**
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini .....32

**ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI**
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

**VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI**
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

**НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ**
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство .....46

**YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA**
Phraseological units with clothing components in english language.....49

# МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

**BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA**
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

**СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА**
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

**АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ**
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

**ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ**
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

**NADIM MUHAMMAD HUMAYUN**
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

**JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH**
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

**КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА**
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

**ALIYEVA ORZIGUL**
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

синкретик табиати билан боғлиқдир. Чунки бу сўз туркумларида ўзаро яқинлиги транспозиция, конверция, полифункционаллик, адвербиализация, омонимия ҳодисаларнинг юз бериши билан боғланади. Шунинг учун ҳам туркий тилларнинг барчасида равиш сўз туркумининг мустақиллик даражаси мақоми ҳақида якуний хулоса айтилмай келинмоқда.

**Резюме.** Ушбу мақолада туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида сифат равиш тиидаги лексемаларнинг синкретик табиати ҳақида мулоҳазалар билдирилган. Равиш сўз туркумининг мустакил сўз туркуми сифатида мунозарали бўлган тадқиқотларга асосланиб мулоҳаза юритилади. Туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида ҳозирга қадар ҳам мустақил сўз туркуми сифатида ўрганилиши мунозарали эканлиги ёритилади.

**Resume.** This article is based on research that has been debated in Turkic languages, including Uzbek, as an independent word group. In Turkic languages, including Uzbek, it is still an independent word. The study as a category is controversial.

**Резюме.** Эта статья основана на исследованиях, которые обсуждались в тюркских языках, включая узбекский, как самостоятельную группу слов. В тюркских языках, включая узбекский, это слово все еще является самостоятельным словом. Изучение серии как серии вызывает споры.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# TIL – HISSIYOTLAR IFODALASH VOSITASI

**Umurqulov Zafar Bekpo'latovich,**
*Termiz davlat universiteti dotsenti,*
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Moddiy olamning har qanday qismi inson unga qanday munosabatda bo'lishi orqali baholanadi. Shuning uchun olam manzaralari tasviri nafaqat insonning tashqi dunyoni bilishi bilan, bakli u haqda fikrlari, tashqi dunyoga munosabati, olam uzvlari haqidagi his-tuyg'ularini ifodasi asosida ochiqlanib boradi. Aytaylik, inson tabiatda gul mavjudligini biladi. Biroq shu bilgani bilan tabiatni yoki gulni moddiy olamdagi minglab boshqa turdagi narsalar bilan bog'liqlik jihatlarini izohlab bera olmaydi. Ko'rinadiki, dunyoni bilish uchun oddiy sezgi a'zolarining faoliyati yetarli bo'lmaydi. Dunyoni bilishda idrok va boshqa psixik jarayonlar muhim. Dunyoni bilishning tilda aks etishi ana shunday jarayonlarning muhim tomonlaridandir. Tilshunos olim Sh.Safarov Har qanday lisoniy qurilma hosil bo'lishining dastlabki bosqichi idrok etilayotgan voqelikning ongdagi in'ikosi bo'lib, lisoniy voqelanish esa til tizimining xususiyatlari bilan bog'liq turli xil amallardan iborat ekanligini ta'kidlar ekan[1] tilda aks etadigan barcha tushunchalar idrokka bog'liqligiga e'tibor qaratadi. Idrok murakkab psixik jarayon[2] bo'lib, dunyodagi narsalarning bir-biridan ajralmagan holda mavjudligi idrokning muhim belgisidir. Chunki narsalarning bir-biriga bog'liqligi, zamon va makondagi joylashuvi, o'xshash va noo'xshash tomonlari inson sezgilari va idrokida aks etadi. Inson idrokida aks etgan narsalarning ongda zuhur bo'lishi uni ifodalash imkoniyatini vujudga keltiradi. Idrok

[1] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – В.29.

[2] Ivanov P., Zufarov M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. – B.96.

etishning muhim qismini kuzatuvchanlik tashkil etadi. Inson olamni kuzatishi natijasida narsalarning xossalarini o‘rganib boradi. Bu holatni hammada ham bir xilda kechmasligi fanda allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan. Shuning uchun bir hodisa, narsa, voqea haqida hamma bir xilda fikr yuritgan holda uni izog‘lab bera olmaydi. Zotan, har kim o‘zining kuzatuvi asosida qilingan idroki tufayli narsani ta’riflab bera oladi. Ko‘rinadiki, olamni ta’riflashda sezgi, idrok, analiz, sintez, tasavvur kabi psixik jarayonlar muhim bo‘lib, ular tafakkur qilish uchun zamin yaratadi. Tafakkur idrok doirasida sodir bo‘lib qolmaydi. Kishilar idrok qilinayotgan narsalar haqida tajribalariga, tasavvurlariga tayangan holda fikr yuritadilar[1]. Psixologiyaga oid manbalarda tafakkur jarayonida xotiraning, fantaziyaning ham muhim o‘rni mavjudligi qayd etiladi. Idrok qilingan narsalarni esda saqlab qolish va u haqda boshqalarga ma’lumotlar berishda xotiraning muhim o‘rni bor. Xotirada saqlanganlar idrok qilinganlarning aksi (obrazi) bo‘lib, kishilar o‘rtasidagi kommunikativ aloqa uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kishilar avval bo‘lib o‘tgan voqealar, shuningdek, oldingi zamonlar haqida fikr almashishganda idrok, tasavvur, tafakkur bilan birgalikda xotiraga ham tayanishadi. Shunday ekan, nutqiy jarayonni psixologik omillarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kishilar avvalo o‘zlari idrok qilgan narsalari haqida fikr bildirishadi. Idrok qilingan narsalar esa olam manzaralari bo‘lib, ular idrok orqali tasavvur qilinadi va inson ongida muhrlanadi. Insonning nutqiy faoliyatida tafakkurning muhim o‘rni bo‘lib, u idrok, tasavvur, xotira va boshqa psixik jarayonlar natijasida boyib boradi. Jumladan, tafakkurning shakllanishida kuzatuvchanlik, tajribalarga tayanish, fantaziya kabi psixik jarayonlarning tafakkurda aks etishi, shu olam, uning voqelanish haqida kishida muayyan ma’lumotlar beradi va ma’lumotlarni boshqalarga yetkazish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bu holat dunyodagi barcha mavjudlikning bir-biri bilan mustahkam aloqada ekanligidan dalolatdir. Bilmagan narsalar haqida fikr yuritish mumkin bo‘lmaganidek, anglanmagan narsalar haqida ham xabar berib bo‘lmaydi. Shunday ekan, har qanday muloqot jarayoni kishining bilish faoliyatining mahsuli sifatida maydonga keladi. Bilishning asosi idrok etish va boshqa psixik jarayonlarning uyg‘unligidadir. Fikr yuritish inson ongli faoliyatidagi kuchli bo‘g‘inlardan bo‘lib, nutq shaklida voqelanadi va axborot uzatish, qabul qilish bilan birgalikda turli his-tuyg‘ularni vujudga kelishi uchun zamin yaratadi.

Ko‘rinadiki, insonning nutqiy faoliyati psixik jarayonlar bilan bog‘liq va bevosita inson ruhiyatiga ham ta’sir etib boradi. Inson nutqiy faoliyatining inson ruhiy dunyosiga ta’siri antropotsentrik tilshunoslikning muhim masalalaridan bo‘lib, tilning ruhiy holatga ta’siri sohasida e’tiborga sazovor tadqiqotlar yaratilmagan. V.fon. Gumboldt “xalqning tilida xalq ruhi” mavjudligi g‘oyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, xalqning tili uning ruhini namoyon etadi. Tilda xalqning butun borlig‘i, milliy xoslanganligi, qadriyati mavjudligi to‘laqonli ifodasini topadi. Olimning bu qarashlari allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan. Til nafaqat xalq ruhini aks ettiruvchi, shuningdek, xalqning ruhiy holatiga ta’sir etuvchi hodisa hamdir.

Ma’lumki, har qanday fikriy ifoda inson ruhiyatiga ta’sir etishi, uni xursand yoki xafa qilishi, ta’sirlantirishi, hayajonlantirishi mumkin. Shunday ekan tilning inson ruhiyatiga ta’siri ham tilning vazifalaridan biridir. Prof. N.Mahmudov tilning ko‘p vazifali hodisa ekanligi haqida fikr bildirar ekan, uning muayyan bir vazifasi bilan tilning mohiyatini belgilab bo‘lmasligini haqqoniy izohlab o‘tgan. Til nafaqat kishilar o‘rtasidagi muloqot vazifasi, balki boshqa kishilarning bilganlarini o‘zlashtirib olib, boshqalar bilan bo‘lgan nutqiy muloqotlar orqali tafakkur va tasavvur dunyosini kengaytirib berish imkoniyatlarini yaratuvchi vosita hamdir. Umuman, kishilarning yashash tarzini tilsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, tilning muhim vazifasi, avvalo, inson hayotini mazmundor qilish bilan boshlanadi. Zero, inson hayotining mazmuni kishilarning o‘z fikrlarini bir-biriga yetkazish, ya’ni nutq hosil qilishi bilan bog‘liqdir. Nutq tilning amaliy jihatdan tadbiq qilinishi sifatida tilning ko‘p vazifaligini ko‘rsatuvchi jarayondir. Tilning vazifalaridan biri sifatida prof. N.Mahmudov tomonidan qayd etilgan, biroq tadqiqotlarda e’tibor qaratilmaydigan ruhiy munosabatlarni aks ettirishi[2] antroposetsentrik tilshunoslik taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tilshunoslar diqqat e’tiborini jalb etmoqda. Antropotsentrik tilshunoslik tilni insonni namoyon etuvchi muhim vosita sifatida tadqiq etar ekan, til vositalarining insonga ta’siri masalalarini o‘rganilishi ham tilga antropotsentrik yondashuvning muhim qismi sifatida baholash lozim. Zero, til vositalari orqali insondagi turli psixik holatlarning ifodalanishi, kishilarda his-tuyg‘ularni vujudga keltirilishi tilning muhim jihatlaridandir. Inson muloqot jarayonida bayon etuvchi va eshituvchi bo‘lib qolmaydi. Shuningdek, boshqalar tomonidan bildiriladigan fikrlar faqat oddiy ifodalardangina iborat bo‘lib qolmaydi. So‘zlovchi shaxs tomonidan bayon etilayotgan fikr tinglovchi uchun batamom yangilik va unga o‘zi bilmagan narsalar haqida yetkazilayotgan ma’lumotlardir. Bunday ma’lumotlar tinglovchi uchun turli hissiyotlarni vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Ma’lumki, hissiyotlar inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tadqiqotchilarning diqqatini jalb etib kelgan. Ayniqsa,

[1] Ivanov P.S., Zufaruva M.E. Ko‘rsatilgan asar. – B.216.

[2] Маҳмудов Н. Ko‘rsatilgan maqola – B.5.

his-tuyg‘ularning tahlili psixologiya, sotsiologiya sohalarining muhim obyekti bo‘lib kelgan. XX asrning 70-yillaridan tilda his-tuyg‘ularning ifodalanishi masalasiga tilshunoslar tomonidan ham alohida e’tibor qaratilib boshlandi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida tilshunos A.Abdullayev o‘zbek tilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usullari haqida maxsus tadqiqot olib borgan. Inson tili orqali his-tuyg‘ularni ifodalanishining asosi mustahkam. Zotan, hissiyotlar va ruhiy holatlar insonning tafakkuri orqali shakllanadi va uning tilida o‘z ifodasini topadi. Tilda his-tuyg‘ularning ifodalanishi insonning his-tuyg‘ularsiz mavjud bo‘lmasligi bilan belgilanadi. Inson doimiy ravishda qandaydir his-tuyg‘ularni o‘z boshidan kechirgan holda yashaydi. Shuning uchun ham til his-tuyg‘ularni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, olam manzarasini tilda ifodalanishining asosiy vositasi so‘z bo‘lib, his-tuyg‘ular, inson psixik holatini ifodalashda ham muhim omildir. Shu bilan bir qatorda his-tuyg‘ular va inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi axborotlar turli ifoda usullari orqali ham bayon etib boriladi. Qiyoslash ana shunday inson ruhiy olamiga hissiy ta’sir etuvchi ifoda usullaridan biridir.

Qiyoslash orqali fikrlash tafakkur jarayonining mahsuli bo‘lib, inson tomonidan anglangan va o‘zlashtirilgan bilimlarni ijtimoiy hayotga mos holda izohlanishidir. Shu boisdan ham olamdagi turli narsa-hodisalar bir-biri bilan qiyoslash obyekti bo‘la olmaydi. Bu holat ifodaning inson tomonidan qabul qilinishi va inson his-tuyg‘ulariga ta’siri bilan bog‘liq. Aytaylik, daraxt barglarini tosh bilan qiyoslashni inson his eta olmaydi, ular orasidagi biror bog‘liqlikni sezmas ekan, bu xildagi axborotni inson qabul qilmaydi. Ko‘rinadiki, har qanday qiyos inson sezgisi, tafakkuri, idroki bilan bog‘liq ravishda insonga ta’sir etuvchi ifoda vositasi sifatida inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etadi. Shunga ko‘ra qiyosiy ifodalarni inson ruhiyati bilan bog‘liq holda talqin qilish ushub ifodaning mohiyatini kengroq yoritish imkoniyatini beradi va shu boisdan tadqiqotimizda qiyosning inson psixologiyasiga ta’siri masalalariga ham e’tibor qaratishni lozim topdik.

Matnning psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan prof. D.Xudoyberganova tilni insoniy his-tuyg‘ularni ifodalashning samarali usullaridan[1] ekanligini e’tirof etadi. V.A.Maslova esa tilni hissiyotlar ko‘zgusi sifatida ta’riflaydi[2]. Darhaqiqat, tilda hissiyotlarni, ruhiy holatlarni ifodalovchi maxsus lug‘aviy vositalar ham mavjudki, ushbu til vositalarini semantik xususiyatlarini o‘rganish ham tilshunoslikning dolzarb muammolaridandir. Masalan, *bo‘zarib ketdi* birikmasida insonning qo‘rqqanidan yuzlarini oqarib ketishi holati ifodalansa, *qizarib ketdi* birikmasi orqali “uyalish”, *yuzlari tirishib ketdi* iborasida “g‘azablanmoq, achiqlanmoq”, *yuzi burishib ketdi* iborasida “norozilik” kabi inson his-tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Birgina inson yuzining turli holatlari natijasida turli his-hayajonning yuzaga kelishi tilni nafaqat mavjudlikni ifodalash, balki inson ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ham ifodalash vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Psixologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasi bo‘lgan bu jarayon psixolingvistika sohasining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Psixolingvistika nazariyasining asoschilaridan bo‘lgan V.P.Belyaninning ta’kidlashicha nutq faqat til tizimidan iborat bo‘lmay, uning ortida psixologiya ham mavjud[3]. Zotan, nutq yaratuvchisi turli toifadagi, turli tushunchalarga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lib, nutqda shaxsning ichki olami o‘z ifodasini topmay qolmaydi. Tilshunos O.S. Zorkina tildagi bir qator faktorlarni to‘liq anglash uchun til doirasidan chiqib shaxsning psixik jarayonlari olamiga murojaat etish lozimligi ko‘pgina tilshunoslar tomonidan e’tirof etilganligi haqida fikr yuritar ekan, bunga asosiy sabab sifatida til materiallarining inson ongida mavjud bo‘lib, kerakli paytda sodir bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi. Olim ana shu psixik jarayonni psixolingvistikaning predmeti sifatida qayd etadi[4]. Prof. D.Xudoyberganova til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan bog‘liqlikda o‘rganishni psixolingvistikaning vazifalaridan biri ekanligini qayd etadi[5]. Ko‘rinadiki, inson tomonidan ifodalangan har qanday fikrda o‘ziga xos psixologik omil mujassam bo‘ladi. So‘zlovchi shaxs tomonidan ifodalanayotgan fikrda muayyan obyektiv xususiyatlar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi va tinglovchi (retsipiyentga) his-tuyg‘ularni vujudga keltirishga sabab bo‘ladi. Badiiy matn unda lingvistik vositalarning vazifalari haqida fikr yuritiar ekan V.P. Belyanin badiiy matnni emotsional mazmunni ifodalash maqsadida til vositalarining estetik vazifalarda qo‘llaniluvchi ko‘p funksiyali hodisa sifatida talqin etadi, bunday matnlarni kompleks va turli aspektlarda o‘rganish bunday ko‘p tarmoqli hodisalar haqida to‘laqonli tushunchalarga olib kelishi mumkinligiga fikrni qaratadi[6].

Darhaqiqat, har qanday matn o‘z mohiyatidan kelib chiqqan holda so‘zlovchining obyektiv qarashlari asosida bir necha maqsaddagi mazmunga ega bo‘lishi mumkin. So‘zlovchi matnga nafaqat real

[1] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – В. 65.

[2] Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. Посотие. 5. Е изд. М.: фимента-Наука, 2012, С.255.

[3] Белянин В.П. Основы психолингвистической диогнотики (модели мира в литературе) : М.: Травола, 2000. – С. 8.

[4] Зорькина О.С. О психолингвистическом подхода к узучению текста. Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С.1/4-4/4.

[5] Худойберганова Д. Кўрсатилган диссертация. – В.65.

[6] Белянин В.П. Ko‘rsatilgan asar. – С. 6.

voqea haqidagi mazmunni yuklash, balki insonning tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi boshqa mazmunlar ham yuklashi mumkinki, bu holat matnni o‘rganishda turli tomonlama yondashish kerakligini talab qiladi. Matn mazmunining tahlil qilishda turli tomonlama yondashish matnning ichki mohiyatiga chuqurroq kirib borishga imkon yaratadi, vaholanki, matn yaratilishi murakkab jarayon bo‘lib, uning mazmuniy munosabatlari yanada murakkabdir. Shuning uchun ham matnni lingvistik va psixolingvistik jihatdan o‘rganish farqlanadi. Psixolingvistikaning asoschilaridan bo‘lgan A.A.Leontyevning qarashlari bo‘yicha psixolingvistika matnni muallif va o‘quvchi birligi asosida ya’ni matnning psixik shakli (matn mazmuni, shakli, obrazi) nuqtai nazaridan o‘rganadi[1]. Bunda matn yaratilishida insondagi tushunchaning muhimligiga alohida diqqat jalb etadi. Binobarin har qanday matn va uni lug‘aviy vositalar yordamida qurilishi – matn shakli so‘zlovchining tushunchasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Inson olamni va undagi narsalarni qanday tushunsa, shunday ifodalaydi. Bir narsa-hodisa va uni atrofdagi narsa-hodisalar bilan bog‘liqligi, aloqadorligini turli shaxslar turlicha ifoda etadi. Fikrni qay tarzda ifodalanishi so‘zlovchining nutqiy qobiliyati bilan bog‘liq A.A.Leontiv so‘zlovchining nutqiy qobiliyatini psixolingvistikaning predmeti deb biladi. Nutqiy qobiliyat orqaligina nutqning subyektga ta’sir doirasi kengayib, so‘zlovchi va ritsipiyent munosabatidagi uyg‘unlik ta’minlanadi. Nutq yaratilish jarayoni tafakkur bilan aloqador bo‘lib, har qanday kommunikativ jarayon psixik jarayonlarning uyg‘unligidan iborat bo‘lgan holda namoyon bo‘lishiga olib keladi. Chunki til tafakkurning real obrazi bo‘lib, tafakkurdagi olam tilda namoyon bo‘ladi. Ko‘rinadiki, matnning yaratilishi, uning idroki antropotsentrik xususiyatga ega bo‘lib, matnda uni yaratuvchisining hissiy olami ham o‘z ifodasini topadi va retsipiyentga hissiy ta’sir uyg‘otish uchun ham xizmat qiladi. Nutqiy faoliyatdagi muhim jarayonlardan biri nutqiy faoliyat natijasining idrokidir. V.P.Belyanin tinglovchining muayyan matn haqida o‘z qarashlariga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlar ekan, matn mazmunini idrok etilishi so‘zlovchi va retsipiyentning psixologik nuqtai nazarlarining mos kelishiga ham bog‘liqligini ta’kidlab o‘tadi[2]. Psixolingvistikaga oid tadqiqotlarda bayon etilgan fikrning anglanishi matnning tushunilish psixolingvistikaning masalalaridan biri sifatida qayd etiladi. Matnning tushunilishi va qabul qilinishi kommunikativ aloqaning muhim jarayoni bo‘lib, bu masalaga psixolingvistik tadqiqotlarda alohida ahamiyat qaratiladi. O.S.Zorkina matnni anglash iyerarxik (darajalanish) sxemasi asosida namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritar ekan, ritsipiyent hech vaqt o‘z olamiga so‘zlarni yoki frazalarni tushunishni maqsad qilib qo‘ymaydi, tushunish jarayoni berilayotgan ma’lumotlarning umumiy ma’nosini tushunishdan, unda olg‘a surilayotgan gipotezalarni anglashdan boshlanishiga urg‘u beradi.

Ma’lumki, til matn orqali reallashadi. Har qanday matniy ifoda o‘ziga xos spetsifik xususiyatlarga ega. Matn birinchi navbatda so‘zlovchining lingvistik o‘ziga xosligi dunyoni anglashidir. Unda so‘zlovchi shaxsning tafakkur dunyosi, tasavvurlari, idroki va nutqiy qobiliyati mujassamlashgan holda ritsipiyentga havola etiladi, uning anglanishi va tushunilishi ham ritsipiyentning matn mazmunini idrok qilish darajasining ko‘lami, tafakkur dunyosining kengligi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Matnga psixolingvistik nuqtai nazardan yondashish matnni tuzuvchi va uni idrok etuvchi shaxs bilan bog‘liqlikda tadqiq qilish asosida maydonga keldi. Matnni mazmunan mohiyatini namoyon qiluvchi so‘zlovchi va tinglovchi shaxsning mavjudligi atropotsentrik yondashuvlar uchun asos bo‘lar ekan, matnning qabul qiluvchi shaxsga ta’siri masalasi matn nazariyasining muhim jihati ekanligiga diqqatni jalb etish lozim bo‘ladi. Umuman olganda, tilning muhim jihati ta’sir etishdir. Kishilarning oddiy muloqot jarayonidagi nutq ham tinglovchi uchun faqat xabar berish vazifasini bajarib qolmaydi. Masalan, erta bahorda bahor keldi degan axborot berilsa, bu axborot asosida uzoq qishda qiyinchiliklarni boshidan kechirgan shaxsning fasl almashishi natijasida paydo bo‘lgan xursandchiligining ifodasini ham anglash mumkin. Tilning bu obyektiv xususiyatini undan foydalanuvchi shaxslarni – so‘zlovchi va tinglovchi munosabatida matnni maqsadli va mazmunli ifodalanishi hamda ongli qabul qilinishi jarayonini namoyon etadi. Tilshunoslikda tushunilmagan, anglanmagan matn til birligi emasligi haqidagi fikrlar ko‘plab uchraydi. Matnni anglash uning mazmunini tushunish bilangina belgilanmaydi. Matnda ifodalangan mazmun bilan birgalikda undagi fikrning inson ruhiyatiga ta’siri matn anglanishining muhim jihatidir. Zotan, ko‘plab matnlar, xususan badiiy matnlarda psixologik jihatdan ta’sir etadi. Inson ruhiy olamiga ta’siri jihatdan qiyoslash xarakteridagi matnlar ham o‘ziga xos. Qiyoslash xarakteridagi matnlar tuzish boshqa matnlarga nisbatan murakkab bo‘lib, unda matn tuzuvchi bir paytda birdan ortiq predmet, narsa-hodisa haqida ma’lumot beradi. Muhimi, ushbu ma’lumotlarning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi bo‘lib, tinglovchining lingvistik talablariga mos kelishidir. Chunki bayon etilayotgan fikr bilan uning voqeyligi bir-biriga mos kelishi kerak bo‘lganidek, unda so‘zlovchining mantiqiy mushohadasi ham o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Qiyosiy ifodalar ayniqsa, shu asosdagi mu-

[1] Леонтев А.а. Основы психолингвистика. (Текст) учебник. – М.: Смысл, 1997. – С.142.

[2] Белянин В.П. Ko‘rsatilgan asar. – С. 8.

rakkab jarayonning mahsuli bo‘lib, psixologik omillarga boy bo‘ladi.

Qiyosiy ifodalarning ba’zi turlarida u yoki bu darajada inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi, his-tuyg‘ular qo‘zg‘atuvchi mazmun mavjud bo‘ladi. Masalan, *Muncha uni qiynamasam! Birov ortiq, birov kam, besh panja barovarmi? Ordona qolsin o‘sha kandidatligi ham! Vaqti soati kelib bir kun yoqlar. Ha bitkazganlari tog‘ni tolqon qilib berishayaptimi juda. Shukur qilish kerak. Bizday bo‘lolmaganlar ham son mingta.* (O‘.Usmonov. “Girdob”) Ushbu matnda uch toifadagi shaxslar bir-biriga solishtirilgan bo‘lib, o‘zining turmush tarzidan norozi shaxs o‘z turmush tarzini o‘zidan yaxshilarga va o‘zidan yomonlarga qiyoslagan holda tasavvur qiladi. Matnning so‘zlovchisi ham ritsipiyenti ham bitta shaxsning o‘zi bo‘lib, unda ifodalangan fikr shaxsning o‘ziga qaratilgan.

Matnning muhim jihati shundaki, qiyoslanish orqali shaxsda ruhiy tushkunlikdan ozod bo‘lish holati paydo bo‘ladi. Oilasidagi turmush tarzini ayrim shaxslarnikidan pastligi unda ruhiy tushkunlik kayfiyatini paydo qilgan bo‘lsa, o‘ziday bo‘lolmagan ko‘plab oilalar ham mavjudligi, ular bilan o‘z oilasini qiyoslashi esa uni tushkunlikdan xolis qiladi. Ruhiy holatni yaxshilash imkonini beradi.

Qiyosiy ifodalarda inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi his-tuyg‘ular ifodalanishining ikki jihatiga e’tibor qaratish lozim. Birinchi jihat so‘zlovchi narsa-hodisaga, shaxsga bo‘lgan munosabatini ifodalash orqali his-tuyg‘u qo‘zg‘atadi. So‘zlovchi voqea-hodisaga nisbatan qanday munosabatda bo‘lib, uni ta’riflasa, tinglovchiga shu tuyg‘u asosida yetib boradi. Masalan, *Grishaning onasi tadbirli ayol edi. Boshqalarning karami mushtdek bo‘lguncha, bularniki choynakday bo‘lib qaynab ketadi.* (O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”) gapidagi tenglashtirish so‘zlovchining qiyos subyektiga nisbatan ijobiy munosabatdaligi tinglovchida ham qiyos subyektidagiday faoliyatda bo‘lish ruhiy holatiga olib keladi.

Ikkinchi jihat muayyan shaxslarning ruhiy holatini ifodalash orqali his-tuyg‘u qo‘zg‘atish Masalan, *– Ha, to‘ydim! – qichqirdim men ham. – Kundan-kunga o‘lgandan ko‘ra, bir kunda o‘lgan yaxshiroq. Shu Ashur menga yana bir tegsin yo u o‘ladi, yo men.* (N.Eshonqul. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”) Ushbu sof qiyosiy ifodada shaxsning boshqa bir shaxs bilan bo‘lgan munosabatlarida ruhiy jihatdan qiynalganligi ifodalangan bo‘lib, uning keskin ruhiy holati ritsipiyentga ham ta’sir etadi. Undagi ruhiy zo‘riqishlarni o‘zida ham his etadi.

Qiyosiy ifodalar orqali inson psixikasiga ta’sir etishda tafakkur qiyoslarining ham muhim o‘rni bor. Bu holatda ruhiyatga ta’sir tinglovchining ongli faoliyatiga va matndan anglashilgan tag ma’noning tushunilshiga bog‘liq. Masalan, *– Men bir arabcha maqol eshitgan edim: yuz yil ibodat qilgandan ko‘ra bir soat fikr yuritgan afzal. Shunga o‘xshab, suhbatda yuz og‘iz umumiy gapdan ko‘ra fikrni uyg‘otadigan bir og‘iz jonli so‘z yaxshi.* (P.Qodirov. “Uch ildiz”) gapidagi sof qiyosda yuz og‘iz umumiy gapdan fikrni uyg‘otadigan bir og‘iz jonli so‘zning afzalligi nasihatomuz tarzda o‘z ifodasini topgan. Bu qiyosiy ifoda kishida suhbat jarayonida keraksiz fikrlarni bayon qilmaslik, gapirganda o‘ylab gapirish hissini vujudga keltiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu his-tuyg‘ularni vujudga kelishi matn mazmunini idrok etish bilan bog‘liq. Ko‘rinadiki, idrok muhim psixik omil sifatida nutqiy faoliyat uchun asos vazifasini bajaradi. Qiyosiy ifodalarda matn yaratuvchisining matnda aks etadigan subyektiv munosabatlari ham his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga olib keladi. *Shayxulislom Burhoniddin qirqlarga borgan, soch-soqoliga bitta ham oq oralamagan ko‘rinishidan nimjon bo‘lsa ham iqtidorli odam edi. U padari buzrukvori Shayxulislom Isomiddinday dono va zakiy murshidlardan bo‘lmasa-da, har qalay Mirzo Ulug‘bekka yon bosib, uni mutassib shayxlardan muhofaza qilib kelardi.* (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”) Matndagi solishtirishda garchand Shayx Burhoniddinga nisbatan Shayxulislom Isomiddin afzal sifatida ta’riflansa-da, ritsipiyentda Shayx Burxoniddinga nisbatan muhabbat ortib boradi, chunki so‘zlovchi Shaxy Burhoniddin Mirzo Ulug‘bekni fisqu-fasotlardan himoya qiluvchi shaxs sifatida talqin etadi. Badiiy asarning ijobiy qahramoniga nisbatan ijobiy munosabat asar o‘quvchisining ham his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, mazkur shaxsga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllanishiga olib keladi.

Ma’lumki, his-tuyg‘ular inson ichki dunyosining ifodachisi, kishining voqeylikka, kishilarga bo‘lgan munosabati natijasida vujudga kelib til vositalari orqali reallashadi. Shubhasiz, turli voqealar, atrof-muhitdagi manzaralarga kishilar befarq bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni bayonida, axborotlarni uzatishda o‘z his-tuyg‘ularini axborot mazmuniga singdirish ehtiyoji ham tug‘iladi. Masalan, *Qarigan chog‘imda it kabi karvonga ergashib, dashtu biyobonlarda, jazirama qumliklarda sarson-sargardon bo‘lib yurishim nega kerak.* (Mirmuxsin. “Temur Malik”) Mazkur tenglashtirish mazmunidagi qiyosiy matnning so‘zlovchisi va ritsipiyenti ham bir shaxsning o‘zi bo‘lib, unda o‘zining hayotidan norozilik hissi ifoda etiladi. Matnda mulohazakorlik hissiyotni vujudga kelishiga olib kelgan. Keksa kishi karvon bilan turli yurtlarga kezib yurishining mashaqqatlaridan bezib, o‘zini itga qiyoslaydi va bunday kezishlarni o‘z yoshiga mos emasligini his etgan holda anglab yetadi. Bu kabi matn insonni o‘ylashga, tafakkur qilishga undaydi va his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Inson hayoti his-tuyg‘ularsiz bo‘lmaganligi uchun uning nutqiy faoliyati ham his-tuyg‘ularsiz bo‘lmaydi.

**Resume**. Comparative constructions play an important role in expressing human emotions in a text. Comparative expressions create specific psychological states in the text and create certain situations in the psyche of the text reader. Comparative expressions can be one of the important factors in studying the psycholinguistic features of Uzbek texts.

**Резюме.** Сравнительные конструкции играют важную роль в выражении эмоций человека в тексте. Сравнительные выражения создают в тексте своеобразные психологические состояния и создают определенные состояния в психике читателя текста. Сравнительные выражения могут быть одним из важных факторов при изучении психолингвистических особенностей текстов на узбекском языке.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# SHAXS NOMLARINING LUG‘AVIY QATLAMDAGI O‘RNI VA TAVSIFIY BELGILARI

**Mardiyev Begali Xudoyqul o‘g‘li,**
*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*
*Urgut filiali Tillar kafedrasi mudiri,*
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.*

Ma'lumki, O‘rta Osiyo kishilik madaniyati tarixida eng qadimiy beshiklardan biri hisoblanadi. Arxeologik qazilmalar ushbu hududda eramizdan ko‘p ming yillar ilgari ham odamlar yashaganligini isbotlab bergan.

Ushbular mazkur hududda ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq ovchilik, baliqchilik, chorvachilik hamda dehqonchilik paydo bo‘laganligidan dalolat beradi. Keyinchalik esa ajdodlarimiz konlarda ishlagan, mis, temir eritish, metallardan turli-tuman harbiy qurollarni yasash, kemasozlik, to‘quvchilik, binokorlik va boshqa ishlar bilan shug‘ullana boshlagan. Mana shu asnoda ajdodlarimiz tilida ayni shunday ishlar bilan shug‘ullangan shaxslar kasb-korini ifodalovchi maxsus leksik birliklar ham qaror topa boshlagan.

XIX asrning ikkinchi yarimidan O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi munosabati bilan yurtimiz hayotida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, qisman madaniy – ilmiy o‘zgarishlar yuz berdi. Pirovardida, o‘zbeklarning ruslar bilan bevosita aloqaga kirishuvlari natijasida o‘zbek tili leksikasiga ham o‘z ta'sirini o‘tkaza boshladi. Bu masalaning biz uchun zarur bo‘lgan tomoni shundaki, o‘sha davrdan boshlab o‘zbek tilida, ayniqsa texnika bilan bog‘liq yangi-yangi shaxs nomlari yuzaga keldi, qator shaxs nomlarining semantikasida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va hokazo.

Xalq xo‘jaligini texnik jihatdan qayta qurollantirish, mamlakatimizning moddiy-texnik bazasini yuksaltirish, fan, madaniyatini yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini yurdirish kabi ulkan vazifalar taqozosi bilan mehnat taqsimotiga keng yo‘l ochildi. Pirovardida, mana shu mehnat jarayonida ishtirok etuvchilar, turli-tuman kasb-kor egalari paydo bo‘la boshladi. Bu ekstralingvistik faktorlar ona tilimizda faoliyati mehnat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarni ifodalovchi minglab maxsus leksemalarning yuzaga kelishiga olib keldi. Birgina qishloq xo‘jaligini olib ko‘raylik. Sir emaski, agrotexnika va mexanizatsiyaga asoslangan qishloq xo‘jaligi malakali mehnatni talab qiladi. Fermer xo‘jaliklarida hozirgi texnikani amaliy va nazariy jihatdan o‘zlashtirgan kishilar- traktorchilar, kombaynichilar, buldozerchilar, paxta terish agregatida, melioratsiya ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan